



YOSHLAR XULQ-ATVORIDA MILLIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Adilova Aziza Tadjibayevna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti

Ilmiy maslahatchi: Jabborov Xazrat Xusenovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Pedagogika va
psixologiya kafedrasi professori psixologiya fanlari doktori (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15319588>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 20-aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30-aprel 2025 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Yoshlar xulq-atvorida miliy fazilatlarni ijtimoiy-psixologik omillari haqida gap ketganda beixtiyor taniqli o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi [2, s.108-118].

Bugungi kunda ijtimoiy fanlarda inson omili va uning ijtimoiy-psixologik jihatlari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning aksariyat qismida shaxs ma'naviy va axloqiy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha har xil qiziqarli empirik ma'lumotlar qo'lga kiritilmoqda, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati insoniyat uchun juda katta ma'naviy tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatlarning axloqiy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur masalani dolzarbligini "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori bilan ham izohlash mumkin. Mazkur kontseptsiyada bugungi yoshlarimizning shaxsiy va ijtimoiy farovon, baxtli hayot qura olishlari uchun zarur bo'lgan aniq fazilatlar majmui belgilab berildi.

Bu haqda Qarorning 2-bandida Kontseptsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yunalishlaridan biri etib "Yoshlarda Vatanga sadokat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish" [1] ta'kidlangan.

Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondashishda maqsadli innovatsion yondoshuv bo'lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosga qurilishini va milliy tarbiya masalasida uning ijtimoiy-psixologik indikatorlari ishlab chiqishimizni talab qiladi.

Xo'sh nega bugun ota-onalar milliy qadriyatlarga asosida ijobiy fazilatlarni tarbiyalashning g'oyaviy va ijtimoiy-psixologik omillariga e'tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishiga qanday omillar to'sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo'ymoqda.

Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy ichki resurslaridan biri bo'lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo'yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo'lishiligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta'lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslarga, qat'iy talablar bilan yondashish juda muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlarni axloqiy masalalariga e'tiborsizlik yer yuzida qanchadan-qancha ma'naviy tahdid va illatlatlarni keltirib chiqarayotganligi hech kimga sir emas.

Masala yuzasidan adabiyot va tadqiqotlar tahlilini kuzatganimizda ko'plab yoshi katta avlod vakllari bilan yoshlarni axloq va tarbiya masalasidagi munosabat masalasiga daxldorlik darajasi balan emas, aksincha loqaydlik darajasi balan javob berishganini ko'rish mumkin. Jumladan ular qo'yidagicha "Hozir zamon judda qiyin bo'lyapti, tirikchilik uchun yugurmasang bo'lmasa!", "Nima qilay bolalarim yeyman, ichaman deydi, kiyim kechagini aytmaysizmi, bizga oson emas...", "Ha endi o'zi omon bo'lsa, tarbiyasi bir gap bo'lar...", "Katta bo'lganida o'zi tarbiyalanib ketadi", "hayotni o'zi tarbiyalaydi" kabi javoblarni kuzatish mumkin.

Bizningcha "Ha endi o'zi omon bo'lsa, tarbiyasi bir gap bo'lar..." aynan mana shunday beparvolik, e'tiborsizlikning ortida butun bir millatning ma'naviy tanazzuli naqd. Shunday ekan bugun mazkur masalani har bir ota-ona bu borada olib borayotgan ishlariga bir nazar tashlab ko'rishlari lozim. Zero, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan bugun har bir ota-ona pedagog bo'lishi lozim tarbiya metodlarini puxta o'zlashtirmog'i lozim, chunki farzand ta'lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng foydali sarmoyadir.

Mazkur masalada pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov "Bugungi har bir ota-ona pedagog bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi [3, c.320].

Biz bugungi zamonaviy ota-onalarga zamonaviy, g'oyaviy yoshlarni tarbiyalash quyidagi milliy tarbiya metodlarini qo'llashlarini tavsiya qilgan bo'lar edik ular quyidagilar:

Ayblamoq - bolani qilgan gunohi, xatosi uchun adolatli ravishda aybli deb topmoq, ayb qo'ymoq va bolaning buni anglashiga erishmoq; arazlamoq - qilgan salbiy qiligi uchun bolani aybsitib, undan o'pka qilib yurmoq yoki tarbiyaviy maqsadda vaqtincha yuz o'girmoq; baholamoq - bola xulqiga uning ahamiyati, qadr, qiymati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirmoq; bahslashmoq - o'quvchi bilan(maktabda), o'g'il-qiz(farzand) bilan maktabda, uyda ilmiy, adabiy, ahloqiy, milliy-mafkuraviy mazmunda munozara qilmoq; begona qilmoq - bolaning yolg'on gapirganligi aniqlangach, qo'polligi muhokama qilingach va h.k. undagi vijdonni junbushga keltirish, qilgan ishi uchun pushaymon qilishi uchun o'qituvchi, yoki ota-ona, yoki ona uni o'zidan vaqtincha uzoq tutib yurishi.

Biriktirmoq - odob-ahloqda, biror hunarda ko'pchilikka namuna bo'lgan ustoz tarbiyasiga bermoq. O'tmishda qo'shni ko'rgan ota-onalar farzandlarining hayotini, odamlar, begonalar bilan muomala qilishni o'rgansinlar deb o'g'illarini choyxonachiga xizmatkorlikka bergan ekanlar; bitim - bolaning hayotiga, o'qishiga, kelajagiga oid jiddiy masalani uning o'zi bilan muhokama qilib, o'zaro ijobiy kelishuv, to'xtam, qarorga kelmoq; buyurmoq - vaziyatning taqozosi bilan tarbiyaviy maqsaddan kelib chiqqan holda bolaning o'zi uchun, jamoa, millat, Vatan manfaatlarini ko'zlab buyruq bermoq.

Va'da olmoq - bolaning o'z so'ziga sodiqligini, so'zi va ishi birligini sinash maqsadida undan biror ishning, majburiyatning bajarilishi haqida so'z olmoq. Girgitton bo'lmoq - mehribonlik bilan, "aylanay", "o'rgilay" so'zlarini ishlatib, ismiga "jon", "xon" qo'shib bolani erkalash; yorilmoq - bolaning sizdan noo'rin xafaligini bilgach, tanho qoldirib, asl maqsadingiz - uning muvaffaqiyati ekanligini aytishingiz. Xayrixohlik, samimiylik bu usulga muvaffaqiyat keltiradi, inoqlashmoq - bola bilan yaqin, do'stona munosabat bog'lamoq, ahillashib ketmoq; kafil bo'lmoq - bola bilmay, adashib xatoga yo'l qo'ygan chog'da uning yaxshiligi haqida boshqalar (o'qituvchi, o'quvchilar)ni ishontirib, bola uchun mas'uliyatni o'z ustiga olmoq.

Kengashmoq - bola sinf jamoasi oldida turgan muammoni birgalikda muhokama qilmoq; koyimoq - jazo berishning yengil turi. Bolaga tanbehlovchi so'z aytmoq, tanbeh bermoq, urishib qo'ymoq; kuzatmoq - sinf ahlining, har bir bolaning xulq-atvorini zimdan qarab, tekshirib turmoq, ko'zdan kechirmoq, qayd qilmoq. Ko'rsatmoq - bolaga, bolalarga o'rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat e'tiborlarini jalb qilish.

Maqtamoq - bolani uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko'rsatmoq; nasihat - sokin, xayrixohlik vaziyatda bolani yaxshi yo'lga solish, ta'lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o'git; ovutmoq - bolaning, uning oilasining boshiga biror kufat tushganda unga tasalli berib yupatmoq, ovuntirmoq, yo'g'lashdan to'xtatmoq.

Quyida sharhlanayotgan milliy tarbiya metodlari xalqimizning o'g'il-qizlarga madaniy, mehrlitabchan munosabatini, bola shaxsiga hurmatini saqlab qolib, oilada va maktab tarbiyasida qo'llash imkonini beradi. Bolaga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning salbiy usullari ham mavjud. Amaliyotda bartaraf qilish uchun ular ham tahlil qilinib, o'rganilmog'i kerak. Bu, ayrim o'qituvchilar, ota-onalarda uchrab turadigan pedagogik-psixologik xatolarni tuzatib olishlariga yordam beradi.

Masala bo'yicha o'rganishlarimizdan ayon bo'layaptiki, har bir ota-ona o'z farzandining sog'lom va baxtli bo'lishini istaydi. Shunga qaramay, ba'zan o'zimiz bilib-bilmay bunga qarshi ish qilamiz. Farzand taryabisiga yondashuvda shunday gaplar borki, ularni farzandingizga qancha gapirsangiz ham arziydi - bular motivatsiya, qo'llab-quvvatlovchi, maqtovchi, hamdardlik bildiruvchi so'zlardir. Bundan tashqari yana shunday gaplar, iboralar borki, ularni aslo tilga ola ko'rmang. Quyida e'tiboringizga farzandingizning tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ayorim bir yondashuvlarni havola etamiz.

"Ahmoqona gaplarni gapirma!". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolalar kattalardan farqli o'laroq, hech qachon bekorchi gaplarni gapirishmaydi. Sizga har qancha kulgili yoki bema'ni tuyilmasin, farzandingiz sizga aytgisi kelgan har bir so'z u uchun muhim ahamiyatga ega. Uni inkor etib, bolaning so'zlari siz uchun ahamiyatsiz ekanligini bildirgan bo'lasiz. Keyin farzandingiz sizdan ko'p narsani sir tutadigan bo'lib qolsa, ajablanmang. Qanday gap gapirmasin, uning yutuqlari uchun xursand bo'ling, so'zlarini diqqat bilan tinglang. Agar u biror bir muammo bilan kelgan bo'lsa, uni hal qilishga urinib ko'ring.

"Mana ol-da, nari ket!" Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolaning talabiga javob berishning eng yomon usuli. Unga minnat qilayotganingiz yetmagandek, undan ketishni talab qilyapsiz. Bolalar o'z istagiga erishish yo'lida bu usuldan foydalanishga tez ko'nikishadi. Ota-onalar esa keyin "qachon shunchalik uzoqlashishga ulgurdik?", deb ajablanishadi. "Nari ket" so'zini qo'llamaslikka harakat qiling, zero bu siz va farzandingiz o'rtasidagi masofani uzoqlashtiradi.

"Boshqalar uddasidan chiqadi, sen esa yo'q". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolani boshqalardan yomon ekanligiga ishontirib, siz farzandingizda o'ziga bo'lgan ishonchsizlik hissini shakllantirasiz. Ba'zi ota-onalar shu yo'l bilan bolani to'g'ri yo'lga solishga urinishadi, biroq bunday usul hattoki kattalarda ham ijobiy natija bermaydi. Zigmund Freydning shunday so'zlari bor: "O'zingizni taqqoslashingiz mumkin bo'lgan yagona shaxs - bu o'tmishdagi o'zingiz". Ana shu so'zlarga asoslanib, bolani tarbiya qilsangiz, u o'ziga ishongan shaxs bo'lib voyaga yetadi.

"Ko'zimga ko'rinma". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bunday so'zlar bolaga na uning o'zi va na muammolari ota-onasiga keraksiz ekanligini bildiradi. Ba'zan ota-onalar shu yo'l bilan mojaroning oldini olishga harakat qilishadi, ammo muammodan qochish bilan uni hal qilib bo'lmaydi. Farzandlaringizning so'zlarini eshiting, ularga yordam bering. Ziddiyatli vaziyatlarda esa boshqacha usullarni qo'llang.

"Sen eplay olmaysan, yaxshisi menga ber". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolaning urinib ko'rish harakatiga chek qo'yib, kelajakda uni yordamga muhtoj va omadsiz qilib qo'yasiz. Psixologiyada buni "o'rgatilgan ilojsizlik" deyiladi, ya'ni inson biror narsani qila olmasligiga oldindan o'zini ishontiradi. Shunday ekan, farzandingiz qiyinroq ishga kirishganini ko'rsangiz, yaxshisi unga "Kel, senga yordamlashib yuboraman", deb ayting yoki u sizga biror ishda ko'mak bersin.

“Beodob so‘zlar” (so‘kinish). Nima uchun mumkin emas? Ota-onaning farzandi oldida so‘kinishi kerak emasligini barchamiz yaxshi bilamiz, bu borada ma‘ruza o‘qishga hojat bo‘lmasa kerak. Bunday so‘zlarni nutqingizdan umuman olib tashlang.

"Sen yomonsan!" yoki "Quloqsizsan". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolalar ota-onalarining fikrlarini juda qadrlashadi. Bunday so‘zlarni aytar ekansiz, farzandingiz ularga amal qilishini yoddan chiqarmang. Bu bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi va kelajakdagi muammolardan darak beradi. "Sen yomonsan" yoki "Quloqsizsan" deyish o‘rniga "Sen to‘g‘ri ish qilmading", "Bu noto‘g‘ri qaror", deb ayting. Bolaga emas, uning harakatlariga baho berib, siz uning yaxshi tomonga o‘zgarishiga turtki bergan bo‘lasiz.

"Seni yaxshi ko‘rmayman". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Ota-onaning sevgisida shart qo‘yish noo‘rin. Undan mahrum bo‘lish xavfi hayotdan mahrum bo‘lishga teng. Farzandingizni yaxshi ko‘rasiz-ku, axir! Unda nima uchun bolaga yolg‘on gapirasiz? Bunday gaplarni aytaversangiz, bolaning ko‘ngliga sovuqchilik solasiz.

Ko‘rib turganingizdek, ota-onaning farzandiga bo‘lgan munosabati, ularning gapirayotgan gaplari katta ahamiyatga ega. Shu bois har bir so‘zingizga e‘tiborli bo‘ling. Ota-onaning xatti-harakati esa undan-da muhim. Yomon so‘zlardan saqlanish bilan birga noto‘g‘ri amallardan ham saqlanib, zero farzandingiz sizni kuzatib turibdi, u kelajakda sizning harakatlaringizni yoki gap-so‘zlaringizni takrorlamasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. "Qush uyasida ko‘rganini qiladi" maqolini doim yodda tuting.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarda ijobiy fazilatlarini tarbiyalashning g‘oyaviy va ijtimoiy-psixologik omillari bugungi asrning eng dolzar masalaridan biri hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas‘ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta‘sirchanligi sust bo‘ladi. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, vertual voqelik ta‘siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Uzluksiz ma‘naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr 1059-sonli Qarori.
- 2.X.Jabborov. "Milliy tarbiya - ijtimoiy-psixologik, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida". Fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konfrentsiya. ISSN: 2181-1776. "Bilig – ilmiy faoliyat" nashri <http://bilig.academiascience.or>. Jild: 03 | nashr: 02 | fevral 2022. 108-118
- 3.M.Quronov. "Bolam baxtli bo‘lsin desangiz..." Toshkent «Ma‘naviyat» 2013. 320 b.